


XORAZM VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI 2018/2019-O'QUV YILI BOSHIGA

Xalq ta'limi vazirligi hamda boshqa idoralarning umumta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan davlat statistika hisobotlari ma'lumotlari bo'yicha 2018/2019-o'quv yili boshiga umumiy o'rta ta'limning asosiy statistik ko'rsatkichlari shakllantirildi.


Xorazm viloyatida 2018/2019-o'quv yili boshiga jami umumta'lim muassasalari soni 526 tani tashkil etib, ulardan 348 nafari (66 %) qishloq joylarida, 178 nafari (34 %) shahar joylarda joylashgan.

Umumta'lim muassasalarining shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, %



2017/2018-o'quv yilining mos davriga nisbatan taqqoslanganda umumiy o'rta ta'lim muassasalari soni 0,2 foizga (1 ta) oshdi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlik



Umumta'lim muassasalaridagi o'quvchilar soni

2018/2019 o'quv yili boshiga

Sinf guruhlari bo'yicha
umumta'lim
muassasalaridagi
o'quvchilar soni, ming
kishi

1-4 sinflar-**141,3**

5-9 sinflar-**152,1**

10-11 sinflar-**47,0**

Mashg'ulotlar bitta
tilda olib boriladigan
maktablar soni-

508 ta

Mashg'ulotlar turli
tilda olib boriladigan
maktablar soni-

196 ta

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar soni Urganch shahrida tashkil etilgan maktab hisobiga bittaga oshdi.

2018/2019-o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining jami o'quvchilari soni 341,3 ming kishini tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, o'quvchilar soni qariyb 10 % ga o'sdi. O'quvchilar sonining ortishi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 10-11-sinflarning tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, ulardagi o'quvchilar soni o'tgan yilga nisbatan 26,3 ming kishiga ko'paygan.


**2018/2019-o'quv yili boshiga tumanlar kesimida
umumta'lim muassasalaridagi o'quvchilar soni, ming kishi**

	2017/2018-o'quv yili boshiga	2018/2019-o'quv yili boshiga
Xorazm viloyati	308,9	341,3
Urganch sh.	32,4	36,0
Xiva sh.	-	18,7
tumanlar:		
Bog'ot	27,1	30,0
Gurlan	25,6	27,9
Qo'shro'pir	27,3	30,1
Urganch	24,9	27,6
Hazarasp	40,9	45,6
Xonqa	31,2	34,3
Xiva	40,9	26,3
Shovot	26,6	29,6
Yangiariq	17,7	19,5
Yangibozor	14,3	15,7

2018/2019-o'quv yili boshiga mashg'ulotlar smenaliligi bo'yicha umumta'lim muassasalari sonining taqsimlanishi quyidagicha: 26,8 % maktab bir o'quv smenasida (2017/2018-o'quv yili boshiga 34,7 %), 73,2 % maktab ikki o'quv smenasida (2017/2018 o'quv yili boshiga 65,3 %) ishlaydi.


Smenalar bo'yicha ta'lim olayotgan bolalar sonining taqsimlanishi quyidagicha: birinchi smenada 68,6 % (2017/2018-o'quv yili boshiga 71,2 %), ikkinchi smenada 31,4 % (2017/2018-o'quv yili boshiga 28,8 %) o'quvchilar ta'lim olmoqda.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi*, %




* Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz

Hududlar kesimida umumta'lim muassasalaridagi o'qituvchilarning ulushi *, %



* o'rindoshlarsiz

Umumta'lim muassasalarining pedagog xodimlari O'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz), ming kishi



Umumta'lim muassasalarda pedagog Xodimlarining shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi

O'quv yili boshiga	Shahar joylarda, ming kishi	Qishloq joylarda, ming kishi
2017/2018	10,4	16,0
2018/2019	10,5	17,7

2018/2019-o'quv yilining boshida
o'qituvchilar umumiy sonidan pedagogik
ta'lim olgan o'qituvchilar ulushi



Pedagog xodimlar umumiy sonida ayollarning ulushi

O'quv yili boshiga	Ayol-o'qituvchilar ulushi %	Shu jumladan boshlangich sinf o'qituvchilari %
2017/2018	76,8	30,8
2018/2019	75,9	28,8


Ma'lumot uchun: 2017/2018-o'quv yili boshida ushbu ko'rsatkich 99,9%ni tashkil etgan

Yuqoridagi grafik va diagrammalardan ko'rinib turibdiki, umumta'lim muassasalarining shtatdagi xodimlari 2018/2019 o'quv yili boshiga 7,1 % ga o'sdi va 28,2 ming kishini tashkil etdi. Shahar joylarida o'sish 1,0 % ga, qishloq joylarida esa 10,6 % ga yetdi.


2018/2019-o'quv yili boshiga oliy ma'lumotli o'qituvchilar 9,2% ni, o'rta maxsus ma'lumotlilar – 4,7% ni tashkil etdi. Bu esa, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining o'qituvchilar safiga qo'shilayotganligini ko'rsatadi. Jami o'qituvchilarga nisbatan ayol - o'qituvchilarning ulushi 2017/2018-o'quv yilidagi 76,8 % dan 2018/2019-o'quv yiliga kelib 75,9 % ga yetdi.

Xorazm viloyatida bitta o'qituvchiga o'rtacha 12 nafar o'quvchi to'g'ri kelmoqda.

2018/2019-o'quv yili boshiga hududlar kesimida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi



Keltirilgan jadvaldan ko'rinadiki, bir nafar o'qituvchiga to'g'ri keladigan yuklama nisbatan ko'proq Xiva shahrida - 16 o'quvchi va Urganch shahrida bir nafar o'qituvchiga 14 o'quvchidan to'g'ri keladi. Bir o'qituvchi uchun 10 kishidan iborat eng kichik yuklama Qo'shko'pir, Xonqa va Yangiariq tumanlarida qayd etilgan.

2018/2019 o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalaridagi oliy va o'rta ma'lumotli o'qituvchilar ulushi, %

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Тел.: (0371)224-65-21